



## UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHGA ASOSIY YONDASHUV TEXNOLOGIYALARI

**M.S.Rahimov**

*NamDU M-TMB-AU-21 guruhi 2-bosqich magistranti,*

**Q.O.SHodmanov**

*Ta'lismenejmenti kafedrasini mudiri, p.f.n., dotsent.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lismuassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda asosiy yondashuv texnologiyalaridan o'zaro bog'liq holda foydalanish maqsadga muvofiqligi masalalari yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Umumiy o'rta ta'lismuassasalari, tizim, tizimlilik, yaxlitlilik, pedagogik tizim, tizimli yondashuv texnologiyasi, majmuaviyilik, integrativlik, kommunikativlik, refleksiv yondashuv texnologiyasi, shaxs-faoliyatli yondashuv texnologiyasi, muvofiqlashtirilgan yondashuv texnologiyasi, vaziyatli yondashuv texnologiyasi.*

**Аннотация.** В данной статье освещается целесообразность взаимообусловленного использования технологий базисного подхода в организации и управлении педагогическими процессами в общеобразовательных учреждениях.

**Ключевые слова:** Общеобразовательные учреждения, система, системность, целостность, педагогическая система, технология системного подхода, комплексность, технология интегративного, коммуникативного, рефлексивного подхода, технология личностно-деятельного подхода, технология согласованного подхода, технология ситуационного подхода.

**Annotation.** The article highlights the expediency of the interdependent use of technologies of the basic approach in the organization and management of pedagogical processes in educational institutions.

**Keywords:** Educational institutions, system, consistency, integrity, pedagogical system, technology of a systematic approach, complexity, technology of an integrative, communicative, reflexive approach, technology of a personality-active approach, technology of a coordinated approach, technology of a situational approach.

Bugungi kunda barcha ta'lismuassasalari uchun ta'lism-tarbiya metodlarini tanlash, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda mustaqil qarorlar qabul qilish, ta'lismuassasining mustaqil siyosatini olib borish, pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va rivojlantirish strategiyalarini mustaqil belgilash kabi yo'naliishlarda keng imkoniyatlar vujudga kelmoqda. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan ta'lismuassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda o'quvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatish, dunyoqarashini kengaytirish, ta'lismuassasasi rahbarlari va pedagog xodimlar faoliyatini qobiliyatli, tashabbuskor, izlanuvchan, g'ayratli,



yutuqlarga intiluvchi va erishuvchi, ma’naviy barkamol shaxsni shakllantirishga yo’naltirish, ya’ni ta’lim tizimining sifat darjasini ko’tarish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta’minlashni pedagogika fanida tizimli yondashuv texnologiyasisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Bunday yondashuvning joriy etilishi mazkur jarayonlarda tasodifiy va kutilmagan holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

*Tizimli yondashuv texnologiyasida ta’lim muassasalarida, xususan, umumiy o’rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar ahamiyat kasb etuvchi yaxlit tizim sifatida, ya’ni tashqi muhitda xizmat qilayotgan murakkab pedagogik tizim sifatida ko’rib chiqiladi.*

Tizimli yondashuv texnologiyasining asosiy tushunchasi “tizim” bo‘lib, aloqa, munosabatlar, integratsiya, yaxlitlik, tashkil etuvchi qismlar kabi tushunchalar orqali ifodalanadi. Tizimning bir-biri bilan bog’liq bo’lgan, o’zaro ta’sir etuvchi komponentlarining majmui yaxlit ob’ektni tashkil etadi.

Pedagogikada “tizim” tushunchasi juda keng qo’llaniladi, masalan, ta’lim tizimi, tarbiya tizimi, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari va metodlari tizimi va hokazo. Ijtimoiy tizimning turlaridan biri hisoblangan pedagogik tizim – insonlarga va yosh avlodga ta’lim va tarbiya berish, ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish maqsadlariga xizmat qiluvchi turli strukturaviy va funksional bog’liq bo’lgan komponentlar majmuidan iborat bo’ladi.

Pedagogika fanida tizimli yondashuv texnologiyasi yo‘nalishida turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

➤ Tizimlilik, yaxlitlilik – bunday shakldagi tizimni komponentlar, o’zaro ta’sir etuvchi qismlar va bo‘g‘inlarning o’zaro bog’liqligi va aloqadorligi tashkil etadi va ularning o’zaro birikishi funksional vazifalarni amalga oshirish va rivojlantirishni ta’minkaydi.

➤ Pedagogik tizimda tizimni tashkil etuvchi omillaridan biri – bu maqsad bo‘lib, unga erishish uchun uslub va vositalar zarur hisoblanadi. Maqsadga erishishda tizim va uning komponentlarining harakati tizim funksiyasining mohiyatini belgilaydi.

➤ Pedagogik tizim uni tashkil etuvchi komponentlar majmuini ifodalab, uning o‘zgarishi ichki ziddiyatlarga bog’liq bo’ladi.

➤ Pedagogik tizim ochiq bo‘lganligi sababli tashqi muhit bilan ko‘pgina kommunikatsiyalar orqali bog’liq bo’ladi. Tashqi muhit va mavjud munosabatlar pedagogik tizimning harakatlanishi va rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko’rsatadi.

➤ Axborotlarning pedagogik tizimga kelib tushishi va undan qayta uzatilishi tizim komponentlarining o’zaro va butun bir tizim bilan hamda tizimning tashqi muhit bilan aloqa qilish uslublari hisoblanadi.

Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida pedagog xodimlar va rahbarlarning asosiy vazifasi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda ijobjiy natijalarga erishish uchun

jamoada zaruriy shart-sharoitlarni yaratish uchun pedagogik jarayonlarni yaxlit tizim sifatida rivojlantirish hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi pedagogik jarayonlarni o‘zaro bog‘liq holda yaxlit tizim deb hisoblasak, ularni tashkil etish va boshqarish ham tizimli xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Pedagogik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga tizimli yondashuv texnologiyasining mazmun va mohiyatini quyidagi tamoyillar asosida ko‘rsatishimiz mumkin:

- umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi pedagogik jarayon ishtirokchilari hisoblangan o‘qituvchilar va o‘quvchilar mazkur jarayon sub’ektlari sifatida faoliyat ko‘rsatishi, ya’ni pedagogik jarayonlarda sub’ekt-sub’ekt munosabatlarini qaror topishi;
- pedagogik jarayon sub’ektlari faoliyatining maqsadga yo‘naltirilganligi, izchilligi va o‘zaro bog‘liqligi;
- majmuaviylilik – pedagogik jarayonlar o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lgan komponentlar majmui ekanligi;
- integrativlik – harakatlanish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o‘zaro birligi;
- o‘zaro bog‘liqlik – pedagogik jarayonlar alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit pedagogik tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi;
- kommunikativlik – pedagogik tizimning tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o‘zaro ta’sir etish xususiyatlariga ega ekanligi [1].

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi pedagogik jarayonlar samaradorligi, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonlari natijaviyligi sub’ektlarning shaxsiy rivojlanishi va tayyorgarligining davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiqlik darajasini belgilaydi.

Pedagogik jarayonlar bir butun tizim sifatida ichki o‘zgarishlarga asosan rivojlanadi va o‘zaro aloqalar tizimi barqarorlashadi. Maqsadga erishishdagi vazifalar, turli xil muammolarni hal etish zamonaviy usullar yordamida amalga oshiriladi, natijalar zamon talablariga moslashadi va pedagogik tizim samaradorligi ta’milanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi mavjud muammolarni hal qilish yo‘nalishidagi yondashuv texnologiyalari, an’analar, taomyillar, belgilangan tartib va me’yorlarni o‘z ichiga oluvchi ta’lim muassasasi madaniyati pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining boshqaruv, pedagogik, psixologik va o‘quv hamda ma’naviy jarayonlarini o‘zaro moslashtirish lozim bo‘ladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish va boshqarish uchun rahbarlar va jamoaning boshqa vakillaridan iborat ta’lim muassasasining ichki boshqaruvi, ya’ni ichki nazorati tashkil etiladi. Ta’lim muassasasi jamoasi – bu murakkab tizim bo‘lib, o‘quv va mehnat faoliyatini qoniqarli tashkil etish, shuningdek, ta’lim muassasasi faoliyatining natijalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatuvchi rasmiy va norasmiy, gorizontal va vertikal, shaxslararo va mehnat faoliyatiga oid aloqalar hamda munosabatlarni qamrab oladi.

Pedagogik jarayonlarda sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirishda ularning mustaqil va samarali fikrlashining muhim mexanizmi sifatida *refleksiv yondashuv texnologiyasi* o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. *Refleksiv yondashuv texnologiyasi* jarayonida o‘rganilayotgan tushunchalarni keng tizim kontekstida tushuntirish jarayonlarini alohida tashkil etish, vujudga kelayotgan vaziyatlarni va sub'ektlar xatti-harakatlarini baholash, belgilangan vazifalarni samarali bajarish usullari va yo‘nalishlarini aniqlash, sub'ektlarning o‘zini-o‘zi tahlil qilishi, o‘z tushunchalari hamda xatti-harakatlarini faol o‘ylab ko‘rishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda *shaxs-faoliyatli yondashuv texnologiyasi* ham zarur hisoblanib, pedagogik jarayonlarda sub'ektlar faolligini ta’minlash va aniq maqsadlarga ko‘ra belgilangan vazifalarni bajarishga sub'ektlarni motivlashtirish yo‘nalishi sifatida vujudga keladi.

*SHaxs-faoliyatli yondashuv texnologiyasida* shaxsning va faoliyatning komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganiladi, chunki bu yondashuv texnologiyasi asosida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda o‘quvchi-o‘quvchilar sub'ekt sifatida faoliyat ko‘rsatadi va o‘z navbatida, o‘quvchi-o‘quvchi shaxsining sub'ekt sifatida rivojlanishi uning faolligi, mustaqil, erkin, tanqidiy, tahliliy va samarali fikrlashining rivojlanishi orqali aniqlanadi.

Pedagogik jarayonlar va sub'ektlar faoliyatining tez o‘zgaruvchan xususiyatlari yana bir metodologik yondashuv texnologiyasini joriy etishga e’tibor qaratish zaruriyatini belgilaydi, ya’ni boshqariluvchi ob’ektning ma’lum bir sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab boshqarishning ma’qul uslubini qo’llashni talab qiladi. Bu o‘z navbatida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlariga *vaziyatli yondashuv texnologiyasini* tatbiq etishni nazarda tutadi.

*Vaziyatli yondashuv texnologiyasi* – pedagogik jarayon samaradorligini aniq vaziyatlarga ko‘ra aniqlashni ko‘zda tutadi. Vujudga kelayotgan vaziyatlarga ko‘ra sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirib boshqarish eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Vaziyatli yondashuv texnologiyasida boshqariluvchi ob’ekt hisoblangan pedagogik jarayonning aniq sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab sub'ektlar – o‘quvchi-o‘quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish mazkur jarayon samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Vaziyatli yondashuv texnologiyasi jarayonida quyidagilarni inobatga olish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi:


- pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillarni aniqlash maqsadida pedagogik jarayonda vujudga kelayotgan vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish va ob’ektiv baholash;
- turli pedagogik vaziyatlarda erishilishi mumkin bo‘lgan natijalarning samaradorligini oldindan aniqlash;
- pedagogik jarayonlarni va sub'ektlar faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishni rejalashtirishda mazkur jarayonga tasir ko‘rsatuvchi omillarni hamda vujudga kelishi

mumkin bo'lgan vaziyatlarni oldindan tasavvur qilish asosida sub'ektlar faolligini ta'minlash yo'llarini belgilash.

Pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish, ko'zlangan maqsadga erishishda sub'ektlar faolligini ta'minlashga jalg etiladigan sarf-xarajatlarning me'yordan ortmasligini ta'minlovchi, sub'ektlarning imkoniyati, qobiliyati va boshlang'ich tushunchalariga hamda mavjud vaziyatlar va shart-sharoitlarga mos keluvchi, eng qulay bo'lgan hamda pedagogik jarayon va uning tarkibiy tuzilishini qayta tashkil eta oladigan tizimni vujudga keltirish *muvoifiqlashtirilgan yondashuv texnologiyasini* joriy etishdir.

Sodda qilib aytganimizda, muvoifiqlashtirilgan yondashuv texnologiyasini amaliyatga tatbiq etilishi natijasida sub'ektlarning faolligini hamda pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlash uchun sarf etiladigan mehnat va vaqt tejaladi, shuningdek, pedagogik jarayonlarda bir tomonlamalilik, ya'ni sub'ekt sifatida faqat o'qituvchining o'zi faoliyat ko'rsatishi bartaraf etiladi.

Natijalar asosida boshqaruv tushunchasi rivojlanish tizimi sifatida amal qiladi va pedagogik jarayon sub'ektlari faoliyatini muvoifiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash asosida belgilangan natijalarga erishish mumkin. Mazkur jarayonda belgilangan vazifalar va o'rganiladigan tushunchalarning mazmun-mohiyatini har bir ishtirokchiga tushuntirish orqali sub'ektlarning o'zini-o'zi boshqarishi hamda o'z faoliyatiga ijodiy yondashuv texnologiyasini joriy etilishi ta'minlanadi.



**1-rasm.** Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning asosiy texnologiyalari.

YUqoridagi keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda umumiyo o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olib, ularni shartli ravishda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning asosiy texnologiyalari (1-rasm) sifatida tasvirlash mumkin.

CHunki pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda keltirilgan texnologiyalarni hech qaysi biri mustaqil ravishda ixtiyoriy vaziyatlarda universallikka



CANADA



CANADA

da'vogar bo'la olmaydi. SHuning uchun ulardan ixtiyoriy pedagogik jarayonda o'zaro bog'liq holda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – Toshkent: Fan. – 2008. – 169 b.
2. Turg'unov S.T. Uluqov N.M., SHodmanov Q.O., Maqsudova L.A.. Ta'lim muassasalarida boshqaruv. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan. – 2008 y.
3. Turg'unov S.T., Axmedova N., SHodmanov Q.O. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlari kasbiy kompetentlilagini rivojlantirish. – Namangan: "Namangan", 2012.
4. SHodmanov Q.O., Xatamova R.Z. Ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion menejmentning o'rni va ahamiyati. NamDU ilmiy axborotnomasi, 2021 yil maxsus son, 789-794-betlar.